XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI JARQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING QARORI

Jarqo‘rg‘on tumani, O‘zbekiston ko‘chasi 13-uy. 190600, tel.: (+99876)432-10-08, www.jarqorgon.uz

2024 - yil 9 - yanvar VI-65-1-8-112-K/24 Jarqo‘rg‘on tuman hokimligi

Jarqo‘rg‘on tumanida Yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2024-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida

O‘zbekistan Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan Jarqo‘rg‘on tumanida Yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2024-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bergan hisoboti tinglandi va bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Tuman soliq inspeksiyasi (R.Sattorov) O‘zbekistan Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan Jarqo‘rg‘on tumanida Yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2024-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Moliya bo‘limi (A.Safarqulov), tuman soliq inspeksiyasi (R.Sattorov)ga:

- O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun loyihasida Jarqo‘rg‘on tumani bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yuridik shaxslarning 1 gektar yeri uchun 36,7 mln so‘m hamda jismoniy shaxslarning 1 kvadrat metr yeri uchun 262,5 so‘m bazaviy soliq stavkalari bo‘yicha taklif kiritilganligi (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun shahar va tumanlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilashi mumkinligi yuzasidan Surxondaryo televideniesi bilan hamkorlikda press klublar va chiqishlarni amalga oshirish va televidiniya orqali ommaga taqdim etish;

- belgilangan yer solig‘i stavkalariga (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llashlari yuzasidan ma’lumotlarni ta’minlab berish;

- Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun keyingi soliq davriga tasdiqlangan soliq stavkalarini besh kun ichida soliq to‘lovchilarga ma’lumot uchun yetkazilishini ta’minlash;

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mavjud yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olish;

- yuridik va jismoniy shaxslarga hisoblangan yer solig‘i va undirilgan soliqlari to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot berib borish vazifasi yuklatilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati, “Jarqo‘rg‘on” gazetasi tahririyati (A.Payonov) mazkur loyihani amalga oshirishdan maqsad va uning tuman iqtisodiyotini yuksaltirishdagi afzalliklari to‘g‘risida ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin hamda mazkur qaror “Jarqo‘rg‘on” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin..

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o’rinbosari (I.Boboqulov), xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tumani Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (B.Kenjaev) zimmalariga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi

Kengash raisi **E.R.Avazov**

Xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tuman Kengashining
2024-yil 9-yanvardagi
VI-65-1-8-112-K/24-son qaroriga
1-ilova

Jarqo‘rg‘on tumani bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslarga 2024-yil uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffisentlar

№	Mahalla nomi	Yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi		Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi	
		Koeffisent miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun, so‘mda)	Koeffisent miqdori	Soliq summasi (1 kv.m uchun, so‘mda)
1	A.Navoiy MFY	0,9	36 720 000	0,7	262,5
2	Avlod MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
3	Beshbuloq MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
4	Bobotog‘ MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
5	Bobur MFY	0,9	36 720 000	0,7	262,5
6	Boymoqli MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
7	Dam MFY	0,9	36 720 000	0,7	262,5
8	Dexqonobod MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
9	Do‘stlik MFY	1,1	44 880 000	0,75	281,25
10	Eskiqishloq MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
11	Guliston MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
12	Gulxovuz MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5

13	G‘ur-g‘ur MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
14	Ismoiltepa MFY	0,9	36 720 000	0,7	262,5
15	Istiqlol MFY	1,1	44 880 000	0,75	281,25
16	Janub qalqonlari MFY	0,9	36 720 000	0,7	262,5
17	Jarqo‘rg‘on minorasi MFY	0,9	36 720 000	0,7	262,5
18	Jinjaktepa MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
19	Kamar MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
20	Qiron MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
21	Qorabura MFY	0,9	36 720 000	0,7	262,5
22	Qoraqursoq MFY	0,9	36 720 000	0,7	262,5
23	Qorayog‘och MFY	0,9	36 720 000	0,7	262,5
24	Qorayontoq MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
25	Qo‘ldovli MFY	0,9	36 720 000	0,7	262,5
26	Qumqishloq MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
27	Kunchiqish MFY	0,9	36 720 000	0,7	262,5
28	Qo‘shtepa MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
29	Loyqand MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
30	Madaniyat MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
31	Markaziy surxon MFY	0,9	36 720 000	0,7	262,5
32	Maslaxattepa MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
33	Matonat MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
34	Mexnatobod MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5

35	Mexnat-roxat MFY	0,9	36 720 000	0,7	262,5
36	Mingchinor MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
37	Mustaqillik MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
38	Namuna MFY	0,9	36 720 000	0,7	262,5
39	Navro‘z MFY	1,1	44 880 000	0,75	281,25
40	Neftchilar MFY	0,9	36 720 000	0,7	262,5
41	Nurli diyor MFY	1,1	44 880 000	0,75	281,25
42	Obi xayot MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
43	Obod guzar MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
44	Oftobqo‘rg‘on MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
45	Oqtepa MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
46	Oltintepa MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
47	Paxtaobod MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
48	Paxtazavod MFY	1,1	44 880 000	0,75	281,25
49	Polvonlar yurti MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
50	Porloq yulduz MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
51	Soqchi MFY	0,9	36 720 000	0,7	262,5
52	Surxon soxili MFY	1,1	44 880 000	0,75	281,25
53	Ulug‘bek MFY	1,1	44 880 000	0,75	281,25
54	O‘rikli MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
55	O‘zbekiston MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
56	Uzumzor MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5

57	Xalqobod MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
58	Xayitobod MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
59	Xo‘jaqishloq MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
60	Yangi ariq MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
61	Yangi qishloq MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
62	Yangi turmush MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
63	Yangi usul MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
64	Yangiobod MFY	1,1	44 880 000	0,75	281,25
65	Yoshlik MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5
66	Zartepa MFY	0,8	32 640 000	0,7	262,5